


**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**WAYS OF EXPRESSION OF PRESUPPOSITION WITHIN THE LEXICAL LEVEL*****Shukhrat Abdulazizovich Mahmudov****Senior lecturer, PhD**Namangan International University**Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** lexical units, context, speech situation, antonymy, nesting**Received:** 23.12.23**Accepted:** 25.12.23**Published:** 27.12.23**Abstract:** This article discusses the possibility of some lexical units to express presuppositions in a sentence based on their semantic properties, and some lexical units are tasked with expressing presuppositions based on their semantic-functional properties. Lexical units representing presupposition are divided into the following types.**PRESUPPOZITSIYANING LEKSIK SATH DOIRASIDA IFODALANISH USULLARI*****Shuhrat Abdulazizovich Mahmudov****Katta o'qituvchi, PhD**Namangan xalqaro universiteti**Namangan, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** leksik birliklar, kontekst, nutq vaziyat, antonimlik, uyadoshlik**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ayrim leksik birliklar semantik xususiyati asosida gapda presuppozitsiyani ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishi, ba'zi leksik birliklar ularning semantik-funksional xususiyatidan kelib chiqqan holda presuppozitsiyani ifodalash vazifasi yuklatilishi xususida fikr boradi. Presuppozitsiya ifodalovchi leksik birliklarni quyidagi turlarga ajratiladi.**СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ ПРЕСУППОЗИЦИИ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ УРОВНЕ*****Шухрат Абдулазизович Махмудов.****Старший преподаватель, PhD**Наманганский международный университет**Наманган, Узбекистан**E-mail: [1965ddd@mail.ru](mailto:1965ddd@mail.ru)*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** лексические единицы, контекст, речевая ситуация, антонимия, вложенность

**Аннотация:** В данной статье рассматривается возможность некоторых лексических единиц выражать пресуппозиции в предложении исходя из их семантических свойств, а перед некоторыми лексическими единицами ставится задача выражать пресуппозиции исходя из их семантико-функциональных свойств. Лексические единицы, представляющие пресуппозицию, делятся на следующие типы.

---

**KIRISH**

Tilda leksik presuppozitsiya leksema ma'nosi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ushbu holat bevosita presuppozitsiya ifodalovchi leksik birliklarni jumla tarkibida, boshqa birliklar qurshovida o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

O'zbek tili leksik birliklari ma'noviy xususiyatlariga ko'ra, ya'ni nutqda yangi ma'no qirralariga ega bo'lishi jihatidan boshqa til birliklaridan alohida ajralib turadi. SHu sababli ayrim leksik birliklarning semantik tabiatini har doim ham kontekst, nutq vaziyatidan ajratib to'laqonli aniqlab bo'lmaydi. Semantik xususiyati pragmatik tahlillar asosida ochiladigan bunday leksik birliklarni kontekst, nutq vaziyat bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiq. Mana shundan kelib chiqqan holda ushbu tadqiqotda presuppozitsion mohiyatini aniqlashga ehtiyoj tug'iladigan leksik birliklar jumla tarkibida, kontekst qurshovida o'rganildi.

**ASOSIY QISM**

Ma'lumki, ko'plab leksik birliklarning semantik qirralari nutq jarayonida namoyon bo'ladi. Nutqda leksik birliklarning ko'chma ma'nolari, fakultativ ma'no komponentlari, baho semasi kabilar yuzaga chiqadi. Nutq jarayonida hatto leksik birliklarga qo'shimcha kommunikativ-pragmatik vazifa yuklatilishi ham mumkin. Bunday vaziyatda leksik birlikning semantik-funksional imkoniyatlari yanada kengayishi kuzatiladi. Leksik birliklarga yuklatilgan har qanday qo'shimcha vazifa kontekst, nutq vaziyati bilan bog'liq holda aniqlanadi. Bu holat leksik birliklarni pragmatik aspektda o'rganish, ayniqsa, ularning turli presuppozitsiyalarni ifodalash imkoniyatlarini tekshirish lozimligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida ayrim leksik birliklarning semantik xususiyatiga asoslangan holda hamda til egalarining nutq ob'ekti haqidagi umumiy bilimlari, til bilish ko'nikmasiga tayanilib, nutq jarayonida ularning zimmasiga presuppozitsiya ifodalash vazifasi yuklatilishi ham mumkin.

Anglashiladiki, ayrim leksik birliklar semantik xususiyati asosida gapda presuppozitsiyani ifodalash imkoniyatiga ega bo'lsa, ba'zi leksik birliklarga ularning semantik-funksional

xususiyatidan kelib chiqqan holda presuppozitsiyani ifodalash vazifasi yuklatiladi. Bu jihatdan presuppozitsiya ifodalovchi leksik birliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin bo‘ladi:

- a) presuppozitsiya ifodalashga xoslangan leksik birliklar;
- b) nutqda zimmasiga presuppozitsiyani ifodalash vazifasi yuklatilgan leksik birliklar.

Birinchi turdagi leksik birliklar tabiatan presuppozitsiyani ifodalashga xoslangan birliklar sanaladi. Bunday birliklar gap tarkibida qo‘llanganda ularning lug‘aviy ma‘nosi yoki fakultativ ma‘nolari, sinonimik, antonimik, ko‘pma‘nolilik xususiyatlari asosida presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi. Masalan, *U ko‘ylagini quritdi* gapidan “*Uning ko‘ylagi xo‘l edi*” presuppozitsiyasi anglashiladi. Ushbu presuppozitsiya *quritmoq* leksemasining “ho‘l, namlikdan xoli bo‘lmoq, quruq holga kelmoq” lug‘aviy ma‘nosini tashkil etuvchi *ho‘l* semik komponentii orqali yuzaga chiqadi. L.A.Numova “*Zakroyte dver*” gapida eshikning ochiqqligi haqidagi presuppozitsiya *zakroyte* so‘zining lug‘aviy ma‘nosi asosida yuzaga chiqishini qayd etar ekan, bunday presuppozitsiyaning shakllanishi so‘z ma‘nosidan tashqari jumla bilan ham bog‘liq bo‘lishini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, bunday bog‘liqlik jumla tarkibidan biror so‘zning olib tashlanishi yoki o‘zgartirilishida ko‘rinadi.

Darhaqiqat, bunday gaplarda presuppozitsiyani aktuallashtiruvchi vositalar leksik birliklar bo‘lsa-da, presuppozitsiyaning axborot shaklida tashkil topishida sintaktik strukturaga ehtiyoj tug‘iladi. Masalan, *yopmoq* leksemasi orqali mantiqan biror narsa, masalan, eshik, deraza kabilarning ochiqqligi nazarda tutilsa-da, ushbu tasavvurning xulosaviy axborot tarzida yuzaga chiqishi uchun sintaktik strukturaga ehtiyoj tug‘iladi.

O‘zbek tilida shaxs, narsa-predmetga nisbatan qo‘llanuvchi *hamma, barcha* olmoshlari semantikasi orqali ham gapda presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi. Bunday olmoshlar shaxs, narsa-predmet kabilarni umumlashtirib ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lganligi bois gapda voqea-hodisa, belgi kabilarning faqat umumga xosligi, undan tashqarida mavjud emasligi, amalga oshmasligi kabilarni anglatuvchi presuppozitsiyalarni yuzaga chiqaradi. Masalan, *Hammamiz karaxt bo‘lib qolgan edik.* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”) (Karaxt bo‘lmagan odam yo‘q edi); *Indamay turishimdan hammasini tushundi.* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”) (Tushunmagan narsasi qolmadi)

Anglashiladiki, o‘zbek tilida leksemaning lug‘aviy ma‘nosi yoki uni tashkil etuvchi semik komponentlar orqali gapda presuppozitsiya ifodalanadi.

O‘zbek tilida juda ko‘p leksemalarning semik tarkibi murakkab bo‘lib, bir necha semalardan tashkil topadi. Rus olimi L.P.Кры́син ko‘pchilik leksik birliklar semantik tarkibiga ko‘ra har xil bo‘lishini, tarkibi bir necha «qatlam»larga ajraluvchi bunday leksik birliklarda bu qatlamlarning sifat jihatidan bir-biridan farqlanishi, gapda ular turlicha namoyon bo‘lishini qayd etadi.

Murakkab semik tarkibli bunday leksik birliklar nutqda qo‘llanganda uning ma’nosini shakllantiruvchi markaziy semasi bevosita yuzaga chiqsa, qolgan semalari presuppozitsiya orqali yashirin tarzda anglashilib turadi. Masalan, “Bir ota-onadan tug‘ilgan qizlarning kichigi” ma’nosini anglatuvchi *singil* leksemasini *qizlarning kichigi, bir ota-onadan tug‘ilgan qiz* kabi semalarga ajratish mumkin. *Singlim Toshkentda yashaydi* gapida ushbu so‘zning “*qizlarning kichigi*” semasi ustuvorlik qilgan. “*Bir ota-onadan tug‘ilgan qiz*” semasi esa presuppozitsiya orqali yuzaga chiqadi. Ko‘rinadiki, murakkab semali leksemalarda markaziy sema bevosita yuzaga chiqsa, chegara semalar presuppozitsiya orqali anglashiladi.

O‘zbek tilida presuppozitsiya ifodalovchi bunday leksik birliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) lug‘aviy ma’nosi, uni tashkil etuvchi fakultativ ma’nolari orqali presuppozitsiya ifodalovchi leksik birliklar;
- 2) ko‘chma ma’nosi asosida presuppozitsiya ifodalovchi leksik birliklar;
- 3) antonimlik xususiyati asosida presuppozitsiya ifodalovchi leksik birliklar;
- 4) sinonimlik va uyadoshlik xususiyati asosida presuppozitsiya ifodalovchi leksik birliklar.

Tadqiqot boblarida bu turdagi leksik birliklar orqali presuppozitsiyaning ifodalanishi birma-bir yoritiladi.

Nutqda presuppozitsiyani ifodalashga xoslanmagan leksik birlikka bu vazifaning yuklatilishida inobatga olinishi lozim bo‘lgan muayyan holatlar mavjud. Boshqacha aytganda, istalgan leksik birlik bu vazifani o‘z zimmasiga oladi deb ayta olmaymiz. Leksik birlikning semantik xususiyati hamda sintaktik qurshov bunga yo‘l berganda ushbu vazifani amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Masalan, – *SHerigimning burni juda zo‘r – tushuntira boshladi Ortiqali.* (X.To‘xtaboev. “SHirin qovunlar mamlakati”) gapining “*SHerigimning burni juda zo‘r*” qismidan “*SHerigimning burni hidni zo‘r ajratadi*” presuppozitsiyasi anglashiladi. Gapda bu presuppozitsiyani ifodalash *zo‘r* leksemasining zimmasiga yuklatilgan. Aslida ushbu gap “*SHerigimning burni hidni zo‘r ajratadi*” tarzida bo‘lib, tejash tamoyili asosida gapdan *hid, farqlamoq* leksemalari tushirib qoldirilgan. Gapda *zo‘r* leksemasi zimmasiga tushirib qoldirilgan ushbu birliklar orqali yuzaga chiquvchi mazmunni tiklash vazifasi yuklatilgan. Natijada *zo‘r* leksemasi hid ajratish harakatning bajarilish tarzini ifodalash bilan birga ushbu harakatning o‘ziga ham ishora qiladi.

O‘zbek tilida gapda qo‘llanmagan bo‘lakning mazmunini presuppozitsiya vositasida tiklash vazifasi ayrim sintaktik birliklarga yuklatilishi ham mumkin. Bu holat quyidagi gapda kuzatiladi: *SHeriklarim to‘rt-besh qog‘ozdan oshirolmabdi. Men bo‘lsam... To‘qqiz qog‘oz-a!* (X.To‘xtaboev. “SHirin qovunlar mamlakati”)

Ko‘rinib turibdiki, gapning “*Men bo‘lsam... To‘qqiz qog‘oz-a!*” qismlari nutq egasining kuchli ruhiy holati (haddan tashqari quvonishi) sababli to‘liq shakllanmagan. Aslida bu gap “*Men bo‘lsam to‘qqiz qog‘oz insho yozdim*” tarzida tuzilishi lozim edi. Gapning to‘liq shakllanmagan qismining mazmunini tiklash “*To‘qqiz qog‘oz-a!*” sintaktik strukturasi zimmasiga yuklatilgan. Natijada u presuppozitsiya ifodachisiga aylangan.

### **XULOSA**

Xulosa qilish mumkinki, o‘zbek tilida ayrim leksik birliklar semantik xususiyati hamda zimmasiga yuklatilgan pragmatik vazifasi asosida gapda presuppozitsiyani ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Наумова Л.А. Пресуппозиции в логике и лингвистике // *Философия: в поисках онтологии: Сборник трудов Самарской гуманитарной академии. Вып. 5.* – Самара: Изд-во СаГА, 1998.
3. Крысин Л. П. Современный русский язык: лексическая семантика. Лексикология. Фразеология. Лексикография: учеб, пособие для студентов вузов. –М.: Academia: Издат. центр «Академия», 2009
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.